**TEXNIK TOPSHIRIQNOMA**

**«TASDIQLAYMAN»**
**"Biznesni rivojlantirish banki" ATB**
**Kredit bosh direktori:**
**B.Mullajanov**

**«14» avgust 2025 y.**
**№ 162**

**"Garovga taqdim etilayotgan", "Garovdagi" va "Bank balansidagi" mol-mulklarning bozor qiymatini baholash hamda "Garovga taqdim etilayotgan mol-mulklarning bozor qiymatini baholash bo'yicha qo'shimcha professional xizmatlar" ko'rsatish**

| T/r | Talablar ro'yxati | Talablar mazmuni |
|---|---|---|
| 1. | **Buyurtmachi nomi** | "Biznesni rivojlantirish banki" ATB |
| 2. | **Buyurtmachi manzili** | Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, A.Navoiy ko'chasi, 18A uy. |
| 3. | **Tanlash savdolarini o'tkazish uchun asos** | O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil yetish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-sonli qarori va "Biznesni rivojlantirish banki" ATB Kreditlarni ma'qullash departamentining 2025-yil 5-avgustdagi IF-3188-sonli Bildirishnomasi. |
| 4. | **Moliyalashtirish manbasi** | Buyurtmachining o'z mablag'lari. |
| 5. | **Bajaruvchi** | Mazkur xizmatni amalga oshiruvchi tashkilot. |
| 6. | **Bankning hududlardagi bo'linmalari** | Buyurtmachining hududlardagi Hududiy boshqarmalari, Bank xizmatlari ofisi va Markazlari. |
| 7. | **Xizmat turlari** | **1. "Garovga taqdim etilayotgan", "Garovdagi" va "Bank balansidagi" mol-mulklarning bozor qiymatini baholash xizmati –** Buyurtmachining mijozi tomonidan kredit ta'minoti uchun garovga taqdim etilayotgan, garovdagi va bank balansidagi barcha turdagi mol-mulklari bozor bahosini o'rganib, baholash hisoboti taqdim etish.<br>**2. Garovga taqdim etilayotgan mol-mulklarning bozor qiymatini joyiga borgan holda baholash bo'yicha qo'shimcha professional xizmatlar ko'rsatish** - barcha turdagi mol-mulklarning bozor bahosini aniqlash yuzasidan qo'shimcha professional xizmatlar ko'rsatish bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotlar tomonidan berilgan narxiga nisbatan konsalting xulosa va baxolash xisoboti taqdim etish. |

| | | |
|---|---|---|
| 8.1 | **“Garovga taqdim etilayotgan”, “Garovdagi” va “Bank balansidagi” mol-mulklarning bozor qiymatini baholash xizmatidan foydalanish tartibi** | **Mazkur xizmatdan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**<br>1. Bank hodimi jahon internet tarmog‘ining “web-brauzer”laridan foydalangan holda Bajaruvchi tomonidan berilgan maxsus havola (subdomen) va faqat o‘zi foydalanishi uchun ochilgan “login” va “parol” orqali dasturiy ta’minotga kiradi.<br>2. Mol-mulkning turi, egasi, joylashgan manzili va boshqa tegishli ma’lumotlar dasturiy ta’minotga kiritiladi. Mol-mulkning egasi va turidan kelib chiqib quyidagi hujjatlarning elektron shaklini mazkur dasturiy ta’minotga biriktiradi:<br>- Mol-mulk egasi va mijozning pasport nusxasi (jismoniy shaxslar uchun);<br>- Mol-mulk egasi va mijozning guvohnomasi (yuridik shaxslar uchun);<br>- Mol-mulk ko‘chmas mulk bo‘lgan taqdirda kadastr hujjatlari (ko‘chirma va kadastr pasporti);<br>- Mol-mulk avtotransport vositasi va maxsus texnika bo‘lgan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma (texnik pasport, texnik talon);<br>- Mol-mulk uskuna bo‘lgan taqdirda, uskunaning pasporti va GTD (IM-40 rejim), hisob-faktura;<br>- Mol-mulk bo‘yicha egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.<br>3. Bank xodimi dasturiy ta’minotga o‘zining va garov egasining telefon raqamlarini yozib qoldiradi hamda biriktirilgan hujjatlar asosida Bajaruvchiga baholash hisobotini olish yuzasidan buyurtmani elektron ravishda yuboradi.<br>4. Bajaruvchi Buyurtmachidan kelib tushgan buyurtmani qabul qilib oladi.<br>5. Bajaruvchi mol-mulkni o‘rganish maqsadida bank xodimi va mol-mulkning egasiga qo‘ng‘iroq qiladi hamda mol-mulk manzili bo‘yicha tegishli mutaxassislarini yuboradi.<br>6. Bajaruvchining mutaxassislari mol-mulk egasi va kredit oluvchi (qarz oluvchi) bilan birgalikda joyiga chiqqan holda mol-mulkni ko‘zdan kechiradi hamda o‘rganadi.<br>7. Bajaruvchi mutaxassislari Android ilovasidan foydalangan holda mol-mulkni ko‘zdan kechiradi, o‘rganishni amalga oshiradi va mazkur ilovaga mol-mulkning rasmlari hamda geolakatsiyasini identifikatsiya qiladi.<br>Bajaruvchi belgilangan tartibda barcha hujjatlarni ko‘rib chiqib, **2 (ikki)** bank ish kuni ichida buyurtmani bajaradi va bank xodimi shaxsiy kabineti orkali mazkur baholash hisobotini yuklab oladi. |
| 8.2 | **“Garovga taqdim etilayotgan mol-mulklarning bozor qiymatini baholash bo‘yicha qo‘shimcha professional xizmati”dan foydalanish tartibi** | **Mazkur xizmatdan foydalanish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:**<br>1. Bank hodimi jahon internet tarmog‘ining “web-brauzer”laridan foydalangan holda Bajaruvchi tomonidan berilgan maxsus havola (subdomen) va faqat o‘zi foydalanishi uchun ochilgan “login” va “parol” orqali dasturiy ta’minotga kiradi.<br>2. Mol-mulkning turi, egasi, joylashgan manzili va boshqa tegishli ma’lumotlar dasturiy ta’minotga kiritiladi. Mol-mulkning egasi va turidan kelib chiqib quyidagi hujjatlarning elektron shaklini mazkur dasturiy ta’minotga biriktiradi:<br>- Mol-mulk bo‘yicha mustaqil baholovchi tashkilotning baholash hisoboti;<br>- Mol-mulk egasi va mijozning pasport nusxasi (jismoniy shaxslar uchun);<br>- Mol-mulk egasi va mijozning guvohnomasi (yuridik shaxslar uchun);<br>- Mol-mulk ko‘chmas mulk bo‘lgan taqdirda kadastr hujjatlari (ko‘chirma va kadastr pasporti);<br>- Mol-mulk avtotransport vositasi va maxsus texnika bo‘lgan taqdirda ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma (texnik pasport, texnik talon);<br>- Mol-mulk uskuna bo‘lgan taqdirda, uskunaning pasporti va GTD (IM-40 rejim), hisob-faktura; |

| | | |
|---|---|---|
| | | - Mol-mulk bo'yicha egalik huquqini tasdiqlovchi hujjatlar.<br>3. Bank xodimi dasturiy ta'minotga o'zining va garov egasining telefon raqamlarini yozib qoldiradi hamda biriktirilgan hujjatlar asosida Bajaruvchiga konsalting xulosa va baxolash xisobotini olish yuzasidan buyurtmani elektron ravishda yuboradi.<br>4. Bajaruvchi Buyurtmachidan kelib tushgan buyurtmani qabul qilib oladi.<br>5. Bajaruvchi mol-mulkni o'rganish maqsadida bank xodimi va mol-mulkning egasiga qo'ng'iroq qiladi hamda mol-mulk manzili bo'yicha tegishli mutaxassislarini yuboradi.<br>6. Bajaruvchining mutaxassislari mol-mulk egasi va bank mijozi bilan birgalikda joyiga chiqqan holda mol-mulkni ko'zdan kechiradi hamda o'rganadi.<br>7. Bajaruvchi mutaxassislari Android ilovasidan foydalangan holda mol-mulkni ko'zdan kechiradi, o'rganishni amalga oshiradi va mazkur ilovaga mol-mulkning rasmlari hamda geolakatsiyasini identifikatsiya qiladi.<br>Bajaruvchi belgilangan tartibda barcha hujjatlarni ko'rib chiqib, **3 (uch)** bank ish kuni ichida buyurtmani bajaradi va bank xodimi shaxsiy kabineti orkali mazkur konsalting xulosasini yuklab oladi. |
| **9.** | **Xizmat turlariga qo'yilgan talablar** | 1. Bajaruvchi mazkur xizmatlarni amalga oshirish bo'yicha Respublikamizning barcha hududlardagi filiallarida malakali va tajribali mutaxassislarga ega bo'lishi hamda yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda bajarishi;<br>2. Bajaruvchida mol-mulk bo'yicha so'rovlar qabul qilish va yuborish hamda baholash hisoboti/konsal'ting xulosasini elektron formatda havola qilishi uchun dasturiy taminot mavjud bo'lishi;<br>3. Mol-mulkning rasmlari hamda geolakatsiyasini identifikatsiya qilinishi uchun Bajaruvchining har bir mutaxassisida Android ilovasi mavjud bo'lishi;<br>4. Bajaruvchi baholash hisoboti/konsalting xulosasini shakllantirishda hamda ushbu xizmatlarning asosli ravishda tuzilishi uchun ko'chmas mulklarni o'rganish yuzasidan o'z tizimini Kadastr agentligiga integratsiya qilgan bo'lishi;<br>5. Buyurtmachining barcha hududlardagi bo'linmalari xodimlarining shaxsiy kabinetiga kirishlari va undagi ma'lumotlarni saqlashlari uchun har birini alohida maxsus "login" va "parol" bilan ta'minlash;<br>6. Dasturiy ta'minotdan foydalanish uchun berilgan shaxsiy kabinet Buyurtmachining xodimlari uchun tushunarli, oson va sodda bo'lishi hamda kamida 2 (ikki) tilda, "o'zbek" va "rus" tillarida bo'lishi lozim.<br>7. Buyurtmachining so'rovi va mijozning buyurtmasi asosida tashkilot tomonidan taqdim etilgan baholash hisoboti/konsalting xulosasining haqiqiyligi to'g'risidagi hujjatlar uchinchi shaxslar shu jumladan, ijro etuvchi hokimiyat organlari, hakamlik sudi va prokuratura oldida himoyalangan bo'lishi lozim. |
| **10.** | **Xizmatlarni ko'rsatish muddati** | Buyurtmachi va Bajaruvchi o'rtasida tuzilgan shartnoma bo'yicha tomonlarning majburiyatlari to'liq bajarilgunga qadar amal qiladi. |
| **11.** | **Xizmatlardan foydalanish bo'yicha "login" va "parol" berish hamda hisobotni yuritish tartibi** | Buyurtmachi hududlardagi bank xodimlarini maxsus "login" va "parol" orqali dasturiy ta'minotdan foydalanishlari bo'yicha bank xodimlarining ro'yxatini Bajaruvchiga elektron shaklda taqdim etadi. Bajaruvchi mazkur ro'yxat bo'yicha dasturiy ta'minotdan foydalanishlari uchun ruxsat beradi. *(Mazkur amaliyotlarni Buyurtmachi va Bajaruvchi tizimlarini o'zaro integratsiya qilgan holda amalga oshirishlari mumkin).*<br>Buyurtmachining Bosh ofisda faoliyat yurituvchi xodimlari mazkur xizmatlar bo'yicha buyurtma yuborgan bank va uning xodimlari, kredit oluvchi hamda garov egasi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan AKT-Dalolatnoma tuzishda foydalaniladigan hisobotlarni dasturiy ta'minot orqali "ekzel" yoki "pdf" shaklda yuklab oladi. |
| **12.** | **Xizmatni ishga tushirish vaqti** | Bajaruvchi bilan shartnoma imzolangandan so'ng ko'pi bilan 5 (besh) bank ish kuni ichida ishga tushiriladi. |

kelishuvchilar: D.Nomozov, Sh.Masharipov, O‘.Meyliyev, O.Almardanov, A.Tolibov

*https://hujjat.brb.uz/?pin=qR51aK36&id=1e43187f-7042-4e89-be09-ee028daadf7d*